

## GNOSEOLOGIK TADQIQOTLAR ORQALI MAMLAKATIMIZNING ILMIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-414-423>

*Ikromova Laylo Baxrom qizi*

*Farg‘ona davlat universiteti magistranti*

*Orcid ID: 0009-0008-4012-7555*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya davrida mamlakatning ilmiy salohiyati nafaqat mavjud bilimlarning hajmi, balki ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy etish qobiliyati bilan belgilanishi hamda gnoseologik tadqiqotlarni rivojlantirish ilm-fan taraqqiyotining muhim metodologik asosi sifatida namoyon bo‘lishini atroflicha yoritadi. Shuningdek, gnoseologiyaning bilish jarayoni, uning mohiyati va qonuniyatlarini o‘rganish orqali ilmiy faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** gnoseologiya, gnoseologik tadqiqotlar, ilmiy salohiyat, axborot kommunikatsiyasi, passiv iste‘molchi, globallashuv jarayonlari.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне рассматривается, что в условиях современной глобализации и цифровой трансформации научный потенциал страны определяется не только объемом имеющихся знаний, но и способностью их анализа и практического применения. Также подчеркивается, что развитие gnoseологических исследований выступает важной методологической основой развития науки. Кроме того, анализируется, как gnoseология, изучая процесс познания, его сущность и закономерности, способствует повышению эффективности научной деятельности.

**Ключевые слова:** gnoseология, gnoseологические исследования, научный потенциал, информационно-коммуникационные технологии, пассивный потребитель, процессы глобализации.

**Abstract:** This article examines that the scientific potential of a country is determined not only by the volume of existing knowledge, but also by the ability to analyze it and implement it in practice in the era of modern globalization and digital transformation. It also highlights that the development of gnoseological research serves as an important methodological foundation for the progress of science. Furthermore, the study analyzes how gnoseology, by exploring the process of cognition, its essence and laws, contributes to increasing the effectiveness of scientific activity.

**Keywords:** gnoseology, gnoseological research, scientific potential, information and communication technologies, passive consumer, globalization.

## **KIRISH**

Bugungi globallashuv va innovatsiyalar davrida mamlakat taraqqiyoti bevosita ilmiy bilish jarayonlari va ularning samaradorligiga bog'liq. Ushbu bog'liqlik gnoseologik tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirishini anglagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev esa o'z nutqlarida shunday deganlar: “Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo‘q” [1]. Mazkur fikrdan kelib chiqib, gnoseologik tadqiqotlar orqali ilmiy bilish metodlarini takomillashtirish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish va yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb etish mamlakatimizning ilmiy salohiyatini yuksaltirishning ustuvor vazifalari sifatida namoyon bo‘ladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

Gnoseologik tadqiqotlar orqali mamlakatimizning ilmiy salohiyatini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari mavzusi turli xil manbalar asosida o‘rganildi. Masalan, N.Shermuhamedova “Gnoseologiya – bilish nazariyasi” [2], M.Ahmedova “Falsafa”[3], U.Tursunova “Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari”[4], J.Biyimbetov “Axborot va jamiyat axborot xavfsizligining ijtimoiy-falsafiy tahlili”[5], N.Abduxolikova “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari (falsafa fani misolida)”[6], B.To‘rayev “Sinergetik tafakkur va sun’iy intellekt”[7], G.Ochilova “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta’lim jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari”[8], T.Xo‘janova “O‘zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrashning ijtimoiy-falsafiy tahlili”[9], N.Mirzaxolov “Axborotlashgan jamiyatda sun’iy intellektning rivojlanish dinamikasi”[10] deb nomlangan asar, maqola hamda PhD va DSc dissertatsiya avtoreferatlar mavzu matnimizni yoritishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari davrida axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internetning o‘rni va roli yuqori darajada ortdi [11.5]. Texnogen sivilizatsiya so‘nggi asrlarda vujudga kelgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u dunyo taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Shu sababli gnoseologik tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy tafakkurni kuchaytirish va mamlakatimiz ilmiy salohiyatini oshirish istiqboldagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Texnogen sivilizatsiya vujudga kelganiga endigina 300 yildan oshdi, biroq u juda faol, harakatchan va tajovuzkor bo‘lib chiqdi: u an’anaviy jamiyatlar va ularning madaniyatlarini o‘ziga bo‘ysundirmoqda, o‘zgartirmoqda va qayta qurmoqda - bunga biz dunyoning barcha qit‘alarida guvoh bo‘lmoqdamiz [12.413].

Mamlakatimizning ilmiy salohiyatini gnoseologik tadqiqotlar orqali rivojlantirishning istiqboldagi vazifalarini quyidagicha belgiladik:

1. Ong va tafakkur xavfsizligini ta‘minlash. Hozirgi axborotga boy va tez o‘zgaruvchan dunyoda davlat xavfsizligi tushunchasi an’anaviy chegaralardan chiqib, inson tafakkuri va ongini himoya qilish masalasini ham qamrab olmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda axborot inson qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy

omillardan biriga aylangan. Shu sababli axborotning ishonchliligi va uning ongga ta'sir qiluvchi mexanizmlarini anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali turli xil tekshirilmagan ma'lumotlar juda tez tarqalmoqda. Internet cheksiz axborot manbai bo'lsa-da, unda turli yolg'on yoki ishonchsiz manbalar ham uchraydi [13]. Ayrim hollarda bunday axborotlar insonlarning hissiyotlariga ta'sir qilish orqali ularni noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Masalan, sog'liqni saqlash sohasiga oid asossiz maslahatlar yoki turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq noto'g'ri talqinlar keng ommaga singdirilishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilayotgan sun'iy, ya'ni soxtalashtirilgan video va tasvirlar haqiqatni aniqlash jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Natijada insonlar ko'pincha yetarli tahlil qilmasdan qaror qabul qilishga moyil bo'lib qolmoqda, bu esa jamiyatda ishonch hissining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda bilish jarayoniga ongli yondashuvni shakllantirish, ya'ni axborotni tekshirish, turli manbalarni solishtirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifaga aylanadi. Ayniqsa, “ushbu ma'lumot qanchalik asosli?”, “u qayerdan olingan?” kabi savollarni berish kabi odatlarni shakllantirish gnoseologik savodxonlikning muhim belgisi hisoblanadi. Shu tariqa, tanqidiy tafakkur nafaqat shaxsning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi, balki jamiyatning axborot ta'sirlariga bardoshli bo'lishini ham ta'minlaydi. Demak, inson ongini noto'g'ri axborotlardan himoya qilishga qaratilgan yondashuvlar bugungi kunda ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. “Yangi O'zbekistonda axborot xavfsizligi muammosi siyosatning muhim bo'g'ini sifatida belgilandi. Axborot xavfsizligining milliy xavfsizlik bilan dialektik aloqadorligi tahlil qilindi. Axborot tarqqiyotda inson-jamiyat-davlat tizimi kontekstual shaklda tadqiq qilindi. Milliy axborot muhitiga zid axborot xavflari tarkibi qismlarga ajratildi. Axborot jarayonlarining jihatlari falsafiy jihatdan tadqiq qilindi. Axborotning ma'naviy hamda aksiologik mezonlari taraqqiyotga eltuvchi kuch sifatida olib qaraldi. Axborot sohasini tartibga soluvchi mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi ko'rsatildi”, - deb fikr bildiradi Biyimbetov [14.21].

Oliy ta'muassasasi talabasi axborotni maqsadli saralash, manba sifati, ishonchliligi va ahamiyatini baholash borasida yaxlit bilimga ega bo'lishi lozim. Bunda tanqidiy fikrlash asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi: talaba axborot manbalaridagi ehtimoliy soxtalikni aniqlash, ma'lumotni ko'p tomonlama tahlil qilish, shoshilinch xulosa chiqarmaslik kabi ko'nikmalarni egallaydi. Falsafa fanining logika, epistemologiya, ontologiya kabi yo'nalishlari talaba tafakkurida axborot egallash jarayonini ilmiy muhokamaga solish imkonini beradi [15.26].

2. Passiv iste'molchidan faol ilmiy yaratuvchilikka o'tishni jadallashtirish. Zamonaviy ta'limning dolzarb muammolardan biri - bilimni faqat tayyor shaklda qabul qilish holati. Hozirgi kunda axborot manbalarining ko'pligi va ularga oson kirish imkoniyati sababli ko'pchilik o'quvchilar va talabalar bilimni mustaqil izlanish orqali emas, balki tayyor holda o'zlashtirishga odatlanmoqda. Bu esa ularning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi. Misol uchun, bugungi kunda yosh dasturchilarimiz tomonidan ChatGPT boti muvaffaqiyatli

islatilmoqda. ChatGPT – bu GPT-3.5 arxitekturasi qurilgan sun’iy intellekt boti bo‘lib, u tabiiy tillarni o‘rganadi, qayta ishlaydi va matn yaratadi, savollarga javob beradi va muammolarni hal qilishga yordam beradi. bot Open AI kompaniyasi tomonidan generativ sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan [16.26]. Biroq Chat GPT dan faqat tayyor javob olish vositasi sifatida foydalanish o‘quvchini passiv iste’molchiga aylantirib, uning mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini susaytiradi. Natijada muammoni chuqur tahlil qilish, yangi g‘oya yaratish va ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyati yetarli darajada shakllanmaydi. Shu sababli Open AI tomonidan yaratilgan ushbu texnologiyadan oson natija olish uchun emas, balki faol ilmiy yaratuvchanlikka yo‘naltiruvchi yordamchi vosita sifatida foydalanish muhimdir. Amaliyotda bunday holat ko‘pincha ilmiy ishlar tayyorlash jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, ayrim talabalar bir nechta manbani chuqur o‘rganib, ularni solishtirish va tahlil qilish o‘rniga, oldindan mavjud bo‘lgan xulosa matndan foydalanib, uni qisman o‘zgartirish bilan cheklanadi. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalaridan noo‘rin foydalanish ham mustaqil fikrlash jarayonini susaytirishi mumkin, chunki bunda shaxs o‘zi izlanish olib borish o‘rniga ommaviy axborot vositalaridagi javobga tayanadi. Natijada ilmiy ishlarning yangiligi kamayadi, mavjud fikrlarni takrorlash holatlari ko‘payadi va bu umumiy ilmiy rivojlanish sur‘atiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammoni bartaraf etishda gnoseologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. Avvalo, yoshlarni bilimning qanday yaratilishini tushunishga o‘rgatish zarur. Ya’ni ilmiy faoliyat tayyor ma’lumotni qayta bayon qilish emas, balki muammoni aniqlash, savol qo‘yish, ilmiy faraz ilgari surish, dalillarni tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish jarayonidan iborat ekanligini anglash muhimdir. Shu bilan birga, savol berish madaniyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash ilmiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ilmiy salohiyatning haqiqiy ko‘rsatkichi mavjud bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan emas, balki yangi bilimlarni yaratish qobiliyati bilan belgilanadi. Aynan shu jihat yoshlarni passiv iste’molchilikdan chiqarib, ularni faol, ijodiy va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish zaruratini belgilaydi.

3. Raqamli davrda tafakkur shakllanishining o‘zgarishini o‘rganish. Texnika falsafasi mutaxassisi Karl Jaspers qarashlarida texnikaning inson hayotidagi o‘rni hamda uni to‘g‘ri yo‘naltirish zarurligi alohida ta’kidlanadi: Texnika o‘z oldiga maqsad qo‘ya olmaydi, u yo‘ ezgulikka yoki yovuzlikka xizmat qiladi, shu sababli texnikani yo‘naltirib turish kerak [17.236]. Shu bois gnoseologik tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy tafakkurni kuchaytirish va mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish bugungi kunning muhim istiqboldagi vazifalaridan biridir

Hozirgi kunda internet va sun’iy intellekt insonning fikrlash tarziga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa bilish jarayonida yangi holatni yuzaga keltirmoqda, ya’ni odamlar endi bilimni faqat o‘z xotirasida saqlamaydi, balki uni qayerdan va qanday topishni bilishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shu sababli tafakkur jarayoni avvalgidan farq qila boshladi. Internet resurslarining ilmiy faoliyatda qo‘llanishi natijasida inson tafakkurining shakllanish jarayoni ham sezilarli darajada o‘zgarmoqda. An’anaviy

ta’limda bilim asosan kitob, o’qituvchi va auditoriya bilan cheklangan bo’lsa, raqamli davrda axborot manbalari cheksiz ko’lamga ega bo’ldi. Bu esa fikrlash usullarining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bu haqida G.Ochilova batafsil to’xtalib o’tadi: Internet resurslaridan ta’lim jarayonida foydalanish uchun bir qancha metodik yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlarning har biri turli sharoitlar va maqsadlarga mos ravishda tanlanadi. Internet resurslari deganda faqatgina veb saytlar emas, balki onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar bazasi, elektron jurnallar, o’quv video kurslari, vebinarlar, bloglar, forumlar, virtual laboratoriyalar kabi ko’plab turlari nazarda tutiladi [18].

Raqamli muhitda keng tarqalgan qisqa formatdagi kontent, masalan qisqa videolar, inson diqqatini tez o’zgaruvchan qiladi. Natijada ko’pchilik uzoq va murakkab matnlarni o’qishga qiynaladi. Masalan, talabalar ko’pincha katta ilmiy maqolani to’liq o’rganish o’rniga uning qisqa mazmunini o’qish bilan cheklanadi. Bu esa mavzuni chuqur tushunishga emas, balki yuzaki bilishga olib keladi. Shuningdek, bir vaqtning o’zida bir nechta ish bilan shug’ullanish odati, ya’ni multitasking [19] ham fikrlash sifatiga salbiy ta’sir qiladi, chunki e’tibor bo’linadi va masala chuqur tahlil qilinmaydi.

Yana bir muhim holati - insonlarning ma’lumotni qabul qilishdan ko’ra uni qayerdan topishni eslab qolishidir. Bu qulay bo’lsa-da, bilimning mustahkam shakllanishiga to’sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt vositalari ham ikki xil ta’sir ko’rsatadi: bir tomondan ular murakkab mavzularni tez tushunishga yordam beradi, boshqa tomondan esa insonni mustaqil fikrlashdan uzoqlashtirishi mumkin. Masalan, ayrim talabalar esse yozishda o’zlari izlanish o’rniga tayyor matndan foydalanishga odatlanib qolmoqda. Shu sababli bunday sharoitda tafakkurni to’g’ri rivojlantirish juda muhim. Inson nafaqat tez axborot topa olishi, balki uni tahlil qila olishi ham kerak. Ya’ni tez fikrlash bilan birga chuqur fikrlash ham rivojlanishi lozim. Axborotni tekshirish, turli manbalarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko’nikmalari muhim ahamiyatga ega. Raqamli vositalardan foydalanishda esa ularga to’liq qaram bo’lib qolmasdan, ongli yondashish zarur.

Qisqacha qilib aytganda, bugungi raqamli davr inson tafakkuriga yangi talablar qo’ymoqda. Endi faqat ma’lumotni bilish emas, balki uni tushunish, tahlil qilish va to’g’ri qo’llash muhim hisoblanadi. Demak, zamonaviy sharoitda yangi tafakkur modeli zarur bo’lib, u tezkorlik va chuqur anglash kabi sifatlarni birlashtira olishi kerak.

4. Ilmiy tafakkur - milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida rivojlantirish. Har qanday jamiyatning rivojlanish darajasi uning tabiiy resurslari bilan emas, balki inson kapitali, ya’ni fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va yangi g’oyalar yarata oladigan insonlar bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tafakkur milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo’ladi. Chunki aynan ilmiy yondashuv orqali jamiyat mavjud bilimlarni chuqurlashtiradi, yangi bilimlar yaratadi va ularni amaliyotga joriy etadi.

Tarixdan ayonki, ilm-fan rivojlangan davrlar jamiyat taraqqiyotining yuksalish bosqichlari bilan bevosita bog’liq bo’lgan. Masalan, Renessans davrlarida ilmiy

tafakkurning rivojlanishi natijasida fan, madaniyat va texnologiya sohalarida katta yutuqlarga erishilgan. Sharq uygʻonish davrida yashab ijod qilgan buyuk allomalar - Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi olimlar ilm orqali jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan. Ularning asarlari nafaqat oʻz davrida, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Zamonaviy davrda ham ilmiy tafakkurning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Kompyuterlar ilmiy xodimlarni ogʻir mehnatdan xalos etib, ilmiy ijod uchun qoʻshimcha imkoniyat, ijodiy tafakkur erkinligining oshishi uchun shart-sharoit yaratmoqda. Kompyuterlar olimga juda katta axborot toʻplamidan foydalanish imkonini beradi, tizimli tadqiq qilish va ilmiy modellashtirish vositasi boʻlib xizmat qiladi [20.308]. Bugungi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, iqtisodiy yuksalishning asosiy manbai bilim va innovatsiyaga tayanadi. Masalan, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlar tabiiy resurslarga boy boʻlmasada, ilm-fan va texnologiyaga katta eʼtibor qaratish orqali yuqori taraqqiyot darajasiga erishgan. Ularning muvaffaqiyati zamonaviy texnologiyalarni yaratish, innovatsion yondashuvni qoʻllash va ilmiy tafakkurni rivojlantirish bilan izohlanadi.

Gnoseologik nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon bilimga boʻlgan munosabatning oʻzgarishi bilan bogʻliqdir. Yaʼni anʼanaviy yondashuvdagi yodlash va tayyor bilimni qabul qilish oʻrnini tushunish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish egallamoqda. Inson bilimni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki uni anglab yetuvchi va rivojlantiruvchi subyektga aylanadi. Aynan shu oʻzgarish ilmiy tafakkurning shakllanishiga va innovatsion rivojlanishga zamin yaratadi. Demak, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili moddiy boylik emas, balki tafakkur sifati hisoblanadi. Ilmiy fikrlash qanchalik rivojlangan boʻlsa, jamiyatning intellektual va iqtisodiy salohiyati ham shunchalik yuqori boʻladi. Shu bois ilmiy tafakkurni rivojlantirish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri boʻlishi lozim.

5. Kognitiv xatolar va ilmiy fikrlashning oʻzaro bogʻliqliqini oʻrganish. Inson tafakkuri mukammal tizim emas, u turli ichki va tashqi omillar taʼsirida xatolarga moyil boʻladi. Shu sababli bilish jarayonida subyekt har doim ham obyektiv va toʻgʻri xulosa chiqara olmaydi. Bu holat kognitiv xatolar orqali namoyon boʻladi va ular ilmiy fikrlashning rivojlanishiga jiddiy toʻsqinlik qilishi mumkin. Kognitiv xatolarning eng keng tarqalgan koʻrinishlaridan biri - bu insonning oʻz qarashlarini tasdiqlovchi maʼlumotlargagina eʼtibor qaratishidir. Yaʼni shaxs oʻz fikriga mos keladigan dalillarni qabul qiladi, unga zid boʻlgan maʼlumotlarni esa inkor etishga moyil boʻladi. Masalan, bir talaba maʼlum bir nazariyani toʻgʻri deb hisoblagan boʻlsa, u faqat shu nazariyani qoʻllab-quvvatlovchi maqolalarni oʻqiydi, unga qarshi boʻlgan ilmiy qarashlarni esa eʼtiborsiz qoldiradi. Natijada u muammoni bir tomonlama tushunadi va obyektiv xulosa chiqara olmaydi.

Yana bir muhim holat - stereotiplar asosida fikrlashdir. Masalan, biror ijtimoiy guruh haqida oldindan shakllangan salbiy tasavvur mavjud boʻlsa, inson har qanday vaziyatni aynan shu stereotip orqali baholashga harakat qiladi. Masalan, “falon guruh vakillari sust ishlaydi” degan qarash mavjud boʻlsa, shu guruhga mansub mehnatkash va faol inson ham notoʻgʻri baholanishi mumkin. Bu esa real vaziyatni notoʻgʻri tushunishga olib keladi. Bundan tashqari, tezlik bilan xulosa chiqarish kabi holatlar

ham keng uchraydi. Masalan, talaba murakkab mavzuni birinchi o‘qishda tushunmaganidan so‘ng mavzu juda qiyin ekanligi hamda uni o‘rganolmasligini tushunib yetadi. Aslida esa muammo mavzuning murakkabligida emas, balki yetarli vaqt ajratilmaganidadir. Bunday xatolar insonning o‘z imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholashiga olib keladi. Bunday kognitiv xatolar oqibatida inson noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi, voqelikni bir tomonlama baholashi va obyektivlikni yo‘qotishi mumkin. Ayniqsa, ilmiy faoliyatda bu holat jiddiy muammolarga olib keladi, chunki ilmiy tadqiqotlar xolislik va dalillarga asoslanishni talab etadi. Shu bois gnoseologik yondashuv kognitiv xatolarni anglash va ularni bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratadi. Avvalo, inson o‘z fikrini mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmasdan, uni doimiy ravishda shubha ostiga qo‘yishi zarur. Shuningdek, muqobil qarashlarni o‘rganish, turli manbalarni solishtirish va xulosani faqat dalillarga asoslab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi va bilish jarayonining sifatini oshiradi. Tanqidiy tafakkur kognitiv xatolardan himoyalanihning eng samarali vositasidir. Aynan shu ko‘nikma orqali inson o‘z fikrlashidagi kamchiliklarni anglaydi, ularni tuzatadi va obyektiv bilimga yaqinlashadi.

6. Innovatsion tafakkurning psixologik asoslarini tadqiq etish. Zamonaviy ilmiy taraqqiyot sharoitida innovatsion tafakkur faqat bilim hajmi bilan emas, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi bilan ham belgilanadi. Ya‘ni inson yangi g‘oyalarni ilgari surishi, muammolarga noodatiy yechim topishi uchun nafaqat bilimga, balki ichki erkinlik, ishonch va motivatsiyaga ega bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ilmiy salohiyatni rivojlantirishda psixologik omillar muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda axborot xavfsizligi, mafkuraviy barqarorlik va yoshlar ongini himoya qilish yo‘nalishida yangi tizimni yaratish, milliy g‘oyani ilgari suruvchi mexanizmlarni kuchaytirish ta‘lim tizimida mediasavodxonlikni oshirishga oid islohotlar olib borilmoqda [21.5]. “Afsuski, ba‘zi yoshlarimizda internetdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasi va madaniyati yetarli emas. Ayrim yigit-qizlar internetni axborot, bilim va ma‘rifat manbayi deb emas, balki shunchaki ko‘ngilochar vosita deb bilishadi. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani ham bejiz emas. Demak, yoshlar orasida zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish ham o‘ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Yoshlarimiz ham mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatini o‘ylab ish tutishi zarur” [22.246]. Natijada bunday sharoitda shaxsning ichki tayyorgarligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi uning yangi yondashuvlarni qabul qilishi hamda murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois bilim bilan bir qatorda ongli munosabat va mustaqil fikrlashni rivojlantirish zamonaviy taraqqiyot talablariga mos shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, amaliyotda ko‘plab yoshlar o‘z fikrini erkin ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Xususan, ular xato qilishdan qo‘rqadi, tanqiddan qochadi yoki o‘z fikrini yetarli darajada qadrlamaydi. Masalan, auditoriyada muhokama jarayonida talabalar savol berishdan yoki o‘z fikrini bildirishdan tiyilishadi, chunki

“noto‘g‘ri gapirib qo‘yaman” degan ichki qo‘rquv mavjud bo‘ladi. Bu holat ularning faolligini pasaytiradi va ijodiy fikrlashni cheklaydi.

Natijada yoshlar mavjud bilimni takrorlash bilan cheklanib qoladi, yangi g‘oyalar yaratish jarayoni sustlashadi. Kreativlikning pasayishi esa innovatsion rivojlanishga to‘sqinlik qiladi. Chunki innovatsiya aynan yangi fikr va noodatiy yondashuv natijasida yuzaga keladi. “Shuningdek, jamiyat axborotlashishda ustunlikka erishish maqsadida Youtube, Instagram, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olish va tarqatish juda osonlashdi. Ammo, bu jarayonning salbiy tomonlari ham bor. Ko‘pchilik odamlar ijtimoiy tarmoqlarda olgan ma‘lumotlarni hech qanday tanqidiy tahlil qilmasdan, olgan ma‘lumotlarni kerakmi, kerak emasmi, bu ma‘lumotlar haqiqatga to‘g‘ri keladimi yoki yo‘qmi, axloqiy me‘yorlarga mos keladimi, degan savolga javob izlamasdan ommaga tarqatishga haris bo‘lmoqdalar. Bu holat jamiyatda chalkashlik va norozilikni keltirib chiqarishi, shaxsiy hayotning buzilishi va ijtimoiy bo‘linishni kuchaytiradi, - deb ta‘kidlaydi tadqiqotchi N.Mirzaxolov [23.15].

Mazkur muammolarni hal etishda psixologik muhitni o‘zgartirish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, erkin fikrlash muhitini yaratish zarur, bunda har bir shaxs o‘z fikrini qo‘rqmasdan ifoda eta olishi kerak. Shuningdek, xatoni salbiy holat sifatida emas, balki rivojlanishning tabiiy bosqichi sifatida qabul qilish muhimdir. Bu yondashuv yoshlarda tajriba qilishga, izlanishga va yangilik yaratishga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Bundan tashqari, ichki motivatsiyani kuchaytirish, ya‘ni bilim olish va yangilik yaratishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirish ham innovatsion tafakkurni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Qisqacha qilib aytganda, innovatsion tafakkur shakllanishi uchun faqat bilim yetarli emas, balki psixologik erkinlik va ijobiy muhit zarur. Aynan shunday sharoitda inson o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etib, yangi g‘oyalar yaratishga qodir bo‘ladi. Demak, innovatsiya avvalo insonning ichki erkinligi va psixologik tayyorgarligidan boshlanadi. Mazkur vazifalarning izchil amalga oshirilishi jamiyatda tanqidiy va innovatsion fikrlashni kuchaytiradi, yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda mamlakatimizning global ilmiy makondagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Natijada ilmiy salohiyatning yuksalishi barqaror taraqqiyot, intellektual taraqqiyot etgan avlodni tarbiyalash va milliy rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarilish uchun mustahkam zamin yaratadi.

## **XULOSA**

Bugungi kunda ilmiy bilish va fikrlash jarayonlarini chuqur o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, gnoseologik tadqiqotlarni rivojlantirish mamlakatimiz ilmiy salohiyatini oshirishning muhim omili bo‘lib, u ilmiy tafakkurni kuchaytirish, yangi bilimlar yaratish va ularni amaliyotga joriy etish jarayoniga xizmat qiladi. Natijada raqamli transformatsiya sharoitida ong va tafakkur xavfsizligini ta‘minlash, mediasavodxonlikni rivojlantirish, erkin fikrlash muhitini yaratish hamda yoshlarning ijodiy va innovatsion salohiyatini qo‘llab-quvvatlash barqaror taraqqiyot va ilmiy raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanmoqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Davlat mukofotlarini topshirish marosimidagi nutqidan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2017-yil 7-dekabr. URL: <https://president.uz/oz/lists/view>
2. Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 413.
3. Ahmedova M.A. Falsafa. – Toshkent, 2006. – B. 236.
4. Tursunova U. A. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari // Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №1.
5. Biyimbetov J.K. Axborot va jamiyat axborot xavfsizligining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. – B. 21.
6. Abduxolikova N.A. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari (falsafa fani misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2025. – B. 26.
7. To‘rayev B.O. Sinergetik tafakkur va sun‘iy intellekt // “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak” ilmiy-nazariy anjuman. – 2024. - № 4 (26). – B. 26.
8. Ochilova G. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta’lim jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.
9. Xo‘janova T.J. O‘zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrashning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2025. – B. 5.
10. Mirzaxolov N.T. Axborotlashgan jamiyatda sun‘iy intellektning rivojlanish dinamikasi. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2025. – B.15.
11. Sotiboldiyev G‘.O. O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning tutgan o‘rni. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Farg‘ona, 2025. – B. 5.
12. Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 413.
13. Tursunova U. A. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari // Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №1.
14. Biyimbetov J.K. Axborot va jamiyat axborot xavfsizligining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2024. – B. 21.
15. Abduxolikova N.A. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari (falsafa fani misolida). Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2025. – B. 26.
16. To‘rayev B.O. Sinergetik tafakkur va sun‘iy intellekt // “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak” ilmiy-nazariy anjuman. – 2024. - № 4 (26). – B. 26.

17. Ahmedova M.A. Falsafa. – Toshkent, 2006. – B. 236.
18. Ochilova G. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta’lim jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.
19. <https://uz.wikipedia.org/>
20. Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. – Toshkent: Noshir, 2011. – B. 308.
21. Xo’janova T.J. O‘zbekiston yoshlarini axborot urushi davrida mafkuraviy tajovuzdan asrashning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2025. – B. 5.
22. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. - Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 246.
23. Mirzaxolov N.T. Axborotlashgan jamiyatda sun’iy intellektning rivojlanish dinamikasi. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2025. – B.15.